

TILSHUNOSLIKDA TAQLID VA OLMOSHLARNING SO'Z TURKUMI SIFATIDAGI O'RNI

Xoshimova Husnida

*Terzim davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
2-bosqich 521-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali taqlid va olmosh so'z turkumlari avval va hozir qanday talqin qilinayotgani va qaysi biri ko'proq maqsadga muvofia ekanligi haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: so'z turkumi, taqlid so'z, olmosh, semantik xususiyat, sintaktik xususiyat

Abstract. This article will discuss how the phrases taqlid and pronominal have been interpreted before and now, and which one is more appropriate.

Key words: word group, imitative word, pronoun, semantic feature, syntactic feature

Абстрактный. В этой статье мы обсудим, как фразы таклид и местоимение интерпретировались раньше и сейчас, и какая из них более уместна.

Ключевые слова: группа слов, подражательное слово, местоимение, семантический признак, синтаксический признак.

So'z turkumlarining sonini va tarkibini aniqlashda o'zbek tilshunos olimlari ham dunyo tilshunosligidagi kabi so'zlarning sintaktik, semantik, morfologik xususiyatlari inobatga olinadi. Biroq amaliyotda asosan so'zlarning semantik xossasiga qarab turkumga ajratish urfga kirgan.

Sintaktik xususiyatda so'zlarning asosan qanday gap bo'lagi vazifasida kelishiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, semantik xususiyatda uning ma'no ko'lamiga e'tibor qaratiladi. Ra'no Sayfullayevaning « Hozirgi o'zbek adabiy tili » o'quv qo'llanmasi (190-sahifa)da so'zlar semantik tasnifga ko'ra ular quyidagicha guruhlariga ajratilgan ekan:

- 1) mustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid)
- 2) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar (olmosh va so'z -gap)
- 3) lug'aviy ma'nosiz so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama)

Olmoshlar ma'noviy g'ayrioddiylik xususiyati bilan taqlidga yaqin turadi. Shuning uchun ikalasi ham «ichi bo'sh so'z » hisoblanadi. Farqi shundaki, taqlidning ma'noviy bo'shlik xususiyati olmoshga nisbatan ancha katta. Sababi olmosh har qanday so'zga, nafaqat so'z, so'z birikmasi, gap, butun boshli bir matnga ham ishora qila oladi. Taqlid so'zda esa bunday imkoniyat mavjud emas. Ko'plab o'quv qo'llanmalarda shuni inobatga olgan holda olmosh mustaqil so'z turkumi sifatida e'tirof etilgan. So'zlar mustaqil bo'lishi uchun, atash ma'nosiga ega bo'lishi, gapda sintaktik vazifa bajarishi

kerak bo'ladi. Olmoshning mustaqil ma'nosi bo'lmagani bilan u barcha mustaqil va nomustaqil so'zlarga ishora qila oladi. Taqlid so'z-chi? Mustaqil so'z bo'lishi uchun unda qanday xususiyat mavjud. Bir ustozdan so'raganimda taqlidlarning soni ko'p ekanligini bunga sabab qilib keltirdi. Lekin soni ko'p bo'lgani bilan u mustaqil emas-ku! Masalan, bolalar bog'chasini misol qilib keltiraman. U yerga juda ko'plab bolalar keladi. Tarbiyachilar esa sanoqli. Agar taqlid so'zlarning soni ko'pligi ularga mustaqil so'z turkumi bo'lishni da'vo qilishga ruxsat berayotgan ekan, nega bog'cha opalar bolalarni o'zlarini tashlab ketishmaydi? Axir bolalar u yerda ko'p-ku!

Shaxsan mening fikrimcha, so'z turkumlarini quyidagicha tasnif qilishni to'g'ri deb bilish va shuni qabul qilish kerak.

- 1) mustaqil so'zlar (fe'l, ot, sifat, son, ravish, olmosh)
- 2) yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama)
- 3) oraliq so'zlar (undov, taqlid, modal)

Taqlid so'zlar uchta lug'aviy ma'noviy guruhlarga ajratiladi:

- a) harakatni ifodalovchi taqlid;
- b) tashqi ko'rinishni ifodalovchi taqlid;
- c) yorug'likni ifodalovchi taqlid.

Taqlidlar yasalmaydi, balki yasalish uchun asos bo'ladi. Olmoshlar ham xuddi shunday, ular yasalmaydi. Ba'zi olimlar yasama olmoshlar sifatida qo'shma olmoshlarni misol qilib keltiradilar. Lekin tilshunos olim G'ani Zikrillayev bu xususida juda to'g'ri mulohazani ilgari surgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R Sayfullayeva Hozirgi o'zbek adabiy tili
2. B Mengliyev, R Sayfullayeva Hozirgi o'zbek adabiy tili